

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Namangan davlat universiteti  
o‘rtasida yuridik kadrlarni tayyorlash sohasidagi o‘zaro  
hamkorlik to‘g‘risida  
MEMORANDUM**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi (keyingi o‘rinlarda - Oliy Sud) Islomov Baxtiyor Djaxangirovich nomidan raisi bir tomondan, Namangan davlat universiteti (keyingi o‘rinlarda - NamDU) nomidan rektor Turg‘unov Sobitxon Toshpo‘latovich ikkinchi tomondan, (birgalikda keyingi o‘rinlarda - Tomonlar) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5987-son Farmoniga muvofiq ushbu Memorandumni quyidagicha ko‘rinishda tuzdilar:

**1-modda. Memorandum predmeti**

**1.1.** Ushbu Memorandumning predmeti Tomonlar o‘rtasida uzoq muddatli, samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, yuqori malakali kadrlarni jalb etish va tayyorlash sohasida qo‘shma loyihalar va tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazishga qaratilgan sheriklik munosabatlarini o‘rnatishdan iborat.

**1.2.** Tomonlar o‘zaro tenglik, ijobiy maqsad, hurmat va ishonch asosida hamkorlikni amalga oshiradilar.

**1.3.** Ushbu Memorandumni amalga oshirish jarayonida Tomonlar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.

**2-modda. Tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikning maqsad va vazifalari**

**2.1.** Ushbu Memorandum doirasida Tomonlar quyidagi ustuvor vazifalarni hal etish bo‘yicha birgalikdagi harakatlarni amalga oshirishga kelishib oldilar:

Oliy sud tizimiga keyinchalik ishga joylashtirish maqsadida NamDU talabalarini tayyorlash va jalb qilish bo‘yicha qo‘shma tadbirlar va loyihalarni ilgari surish va amalga oshirishda ko‘maklashish hamda o‘zaro hamkorlik qilish;

yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni hamda oliy ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

Oliy sud tizimi hamda NamDUNing kelgusi istiqboldagi faoliyatini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratuvchi dolzarb muammoli mavzular bankini yaratish va ushbu mavzular bo‘yicha hamkorlikda tadqiqotlar olib borish;

Oliy sud tizimi va yurisprudensiyada bugungi kunda mavjud dolzarb muammoli mavzular bo‘yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar tayyorlash va nashr etish, seminarlar, respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalar tashkil etish;

NamDU professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, shuningdek bakalavriat hamda bakalavriati masofaviy ta‘lim shakli, magistratura va sirtqi ta‘limda tahsil olayotgan talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini sudlarda samarali tashkil etish;

Sud binolarida yaratilgan imkoniyatlar, sud jarayonlariga tatbiq etilayotgan zamonaviy texnologiyalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan yaqindan tanishish;

Oliy sud tizimida ishlash istagini bildirgan NamDUning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalarini ishga tavsiya qilib borish hamda bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil etish;

Oliy sudning kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha komissiyasi tomonidan NamDU bitiruvchilari o'rtasida bevosita suhbat tashkil etish, suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarni Oliy sud va uning hududiy bo'limlariga yo'llanma asosida ishga tavsiya etish;

NamDUda ta'lim olish davrida o'zlashtirish ko'rsatkichi 90 foiz va undan yuqori bo'lgan bitiruvchi talabalarni rektor tavsiyanomasi asosida ishga yo'naltirish;

NamDU talabalarining darsdan so'ng nazariy bilimlarini amaliyotda yanada mustahkamlash, kelgusida Oliy sudning kadrlar zaxirasini shakllantirib borish maqsadida Oliy sud huzurida "Bo'lajak sudyalarning klubi"ni tashkil etish;

NamDU talabalarini o'rtasida qonun hujjatlarini bilishi, talqin qilishi va qo'llashi, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash va huquq ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish bo'yicha tanlovlarni tashkil etish;

yuridik kadrlarni tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganishni tashkil etish;

Oliy sud bilan kelishgan holda Oliy sud tizimida faoliyat olib borayotgan yuqori malakali xodimlarni NamDUning o'quv jarayonlariga jalb qilish.

### **3-modda. O'zaro hamkorlik shakllari**

**3.1.** Hamkorlik doirasida axborot almashish hamda Tomonlar vakillarining uchrashuvlarini tashkil etish.

**3.2.** Tomonlar faoliyatiga taalluqli va o'zaro manfaatli masalalar bo'yicha maslahatlashuvlar.

**3.3.** Ushbu Memorandumdan ko'zlangan maqsadlarga erishishga qaratilgan qo'shma tadbirlar va loyihalarni rejalashtirish (tegishli chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqish) va amalga oshirish.

**3.4.** Tomonlar o'rtasidagi hamkorlik maqsadlariga erishishga qaratilgan shartnomalar (bitimlar) tuzish.

**3.5.** Ushbu hamkorlik doirasida Oliy sud tizimida stajirovkalarni tashkil etishda, shuningdek, NamDU professor-o'qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar hamda mustaqil tadqiqotchilarni tanlash va jalb qilish bo'yicha boshqa shunga o'xshash loyihalarni tashkil etish.

### **4-modda. Hamkorlikni tashkil etish**

**4.1.** Tomonlar o'rtasida ushbu Memorandumga qo'shimcha ravishda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi imzolaniishi mumkin va ushbu yo'l xaritasi Tomonlar o'rtasida imzolanganidan so'ng Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadi.

## **5-modda. Qo'shimcha shartlar**

**5.1.** Ushbu Memorandum imzolangan Tomonlarga hech qanday huquqiy va moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi, bu kabi majburiyatlar yuzaga kelishi uchun Tomonlar o'rtasida alohida fuqarolik shartnomalar tuzilishi talab etiladi.

**5.2.** Ushbu Memorandum dastlabki kelishuv bo'lib, sheriklik shartnomasi hisoblanmaydi va uning qoidalarini bajarmaslik Tomonlar uchun javobgarlikni keltirib chiqarmaydi (Tomonlardan hech biri boshqa tomonga Memorandumning amalga oshirilishi (muvaffaqiyatsizligi), amal qilishining tugashi yoki tugatilishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni qoplashga majbur bo'lmaydi

**5.3.** Ushbu Memorandum doirasida hech bir tomon boshqa tomon yoki Tomonlarning majburiyatlari yoki qarzdorliklari bo'yicha mas'ul yoki qarzdor hisoblanmaydi va hech bir tomon tegishli alohida shartnomalar tuzmasdan turib boshqa tomon yoki Tomonlarning vakili sifatida ish olib borishiga yo'l qo'yilmaydi.

**5.4.** Har bir tomon ushbu Memorandum shartlarini amalga oshirishdan kelib chiqadigan xarajatlarni (agar tegishli kelishuvlarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa) o'z zimmasiga oladi.

**5.5.** Har bir tomon ushbu Memorandum doirasidagi hamkorlikka oid boshqa tomon bilan oldindan kelishilmagan holda ochiq bayonotlar bermaydi.

## **6-modda. Qonunchilikka rioya qilish**

**6.1.** Tomonlar ushbu Memorandumni, shuningdek, alohida kelishuvlarni O'zbekiston Respublikasining barcha amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.

**6.2.** Tomonlar boshqa yuridik shaxslar bilan predmeti, hajmi va shartlari bo'yicha o'xshash shartnomalar tuzishga haqli.

## **7- modda. Maxfiylik**

**7.1.** Tomonlar ushbu Memorandum va boshqa memorandumlar doirasida tuzilgan alohida shartnomalar bo'yicha boshqa tomondan olingan har qanday ma'lumotlarni sir saqlashga majburdirlar.

**7.2.** Tomonlar ushbu Memorandum shartlari va maxfiy ma'lumotlar sifatida yoki o'z mohiyatiga ko'ra maxfiy deb hisoblanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar sifatida uzatiladigan barcha ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashga majburdirlar.

## **8-modda. Memorandumning amal qilish muddati va uning tugatilishi**

**8.1.** Ushbu Memorandum 5 (besh) yil muddatga tuziladi va Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi. Agar Memorandumning amal qilish muddati tugashiga 30 (o'ttiz) kalendar kun qolganida Tomonlardan hech biri ushbu Memorandumning amal qilishini tugatish istagini bildirmasa, Memorandum har bir keyingi yil uchun uzaytirilgan hisoblanadi.

**8.2.** Tomonlarning har biri boshqa tomonni tugatilishi kutilayotgan sanadan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda ushbu Memorandumni bir tomonlama va muddatidan oldin tugatishga haqli.

## 9-modda Yakuniy qoidalar

9.1. Tomonlar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan ular o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

9.2. Ushbu Memorandumga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar, agar u yozma ravishda tuzilgan va Tomonlaming har biri tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Tomonlaming har biri boshqa tomonni o'z nomi, manzili, telefon va faks raqamlari va internet manzili o'zgarganligi to'g'risida bunday o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay xabardor qilish majburiyatini oladi.

9.4. Ushbu Memorandum ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va har bir tomon uchun bir nusxadan taqdim etiladi.

## 10- modda. Tomonlaming manzillari va imzolari:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy sudi raisi

Namangan davlat  
universiteti rektori



2024 yil "15" yanvar

B. Islomov



2024 yil "15" yanvar

S. Turg'unov

5 may  
R. Amanov